

e-mail: info@uzairways.com
tel: +998 (78) 140-46-23
fax: +998 (71) 236-75-00

www.uzairways.com



Aksiyadorlik jamiyati | Joint-Stock Company

13 yanvar 2026 yil.

8.5-62-1.14-son

O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi

2026-yil 8-yanvardagi 4/E31-sonli
xat yuzasidan.

“Uzbekistan Airways” AJda 2025 yilda raqamlashtirish borasida qo'yida keltrib o'tilgan ishlar amalga oshirildi:

-Reyting baholash NIS.EGOV.UZ tizimiga tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritib borish, Jamiyat ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash maqsadida Reyting baholash NIS.EGOV.UZ tizimiga tegishli ma'lumotlar baholash komponenti bo'yicha ko'rsatilib o'tilgan sanalarda kiritib borilmoqda.

-“Uzbekistan Airways” Ajda dekabr oyida ERP, Amos (MRO), BI tizimlari joriy qilindi.

-O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining “Masofaviyaudit.uz” axborot tizimi hamda “Uzbekistan Airways” AJning tegishli axborot tizimlari o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinuvini tashkil etish bo'yicha texnologik yo'riqnoma tasdiqlandi.

Mazkur texnologik yo'riqnoma ko'rsatib o'tilgan axborot tizimlari o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinuvini tashkil etish bo'yicha Hisob palatasi va “Uzbekistan Airways” AJ tomonidan sinov ishlari o'tkazildi hamda o'tkazilgan sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlandi. Hisob palatasi va “Uzbekistan Airways” AJ o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinuvini amalga oshirilib kelinmoqda;

“Uzbekistan Airways” AJda 2026 yilda raqamlashtirish borasida amalga oshirishi rejalashtirilgan ishlar:

-Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish, savdo va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimini joriy etish.(PQ-286 sonli qaror 2-ilova 3.3 band).

-Axborot texnologiyalari xizmatlarini rejalashtirish, ko'rsatish va takomillashtirishni standartlashtirilgan yondashuv orqali boshqarish tizimini joriy etish bo'yicha loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish.(PQ-286 sonli qaror 2-ilova 4.1 band).

-Strategik yirik davlat korxonalari faoliyatini tahlil va nazorat qilish orqali ularning samaradorligini baholash bo'yicha strategik yirik davlat korxonalarida joriy etiladigan ishlab chiqarish, moliyaviy oqimlar, tannarx, investitsiya va kreditlar

to'g'risidagi ma'lumotlarni onlayn tahlil qilish hamda biznes-reja ijrosini nazorat qilish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotlarning ma'lumotlar bazalarini Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan integratsiya qilish.(PF-252 sonli farmon 1-ilova 8.2 band).

-Strategik yirik davlat korxonalari faoliyatini tahlil va nazorat qilish orqali ularning samaradorligini baholash bo'yicha "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimida strategik yirik davlat korxonalarida biznes-reja ijrosini monitoring qiluvchi "Biznes reja" modulini yaratish orqali nazorat tizimini yo'lga qo'yish (PF-252 sonli farmon1-ilova 8.3 band);

**Boshqaruv raisining transformatsiya,
moliyaviy va privatizatsiya masalalari
bo'yicha birinchi o'rinbosari v.v.b**



A.A.Sattarov